ISSN: 2181-4341, IMPACT FACTOR (RESEARCH BIB) – 9.145, SJIF – 5,431

Kalanova Mohigul Baxritdinova

Samarqand iqtisodiyot va servis institute, “Marketing “ kafedrasi dotsenti

Ibodullayev Ozodbek Baxtiyor o‘g‘li

Samarqand iqtisodiyot va servis instituti talabasi

AKADEMIK HALOLLIKNI TA’MINLASHDA PLAGIATNING OLDINI OLISH YO‘LLARI

Annotatsiya

Mazkur maqolada akademik halollik tushunchasi, uning ta’lim tizimidagi ahamiyati va o‘rni chuqur tahlil qilingan. Shuningdek, plagiatning mohiyati, uning asosiy turlari hamda kelib chiqish sabablari tahlil qilingan. Maqolada plagiatning salbiy oqibatlari ko‘rsatilib, talabalarning bilim olish jarayoniga ta’siri ochib berilgan. Bundan tashqari, akademik halollikni ta’minlash yo‘llari, xususan, mustaqil fikrlashni rivojlantirish, manbalardan to‘g‘ri foydalanish va iqtibos keltirish qoidalariga amal qilish masalalari bayon etilgan. Mazkur maqola talabalarda halollik, mas’uliyat va ilmiy madaniyatni shakllantirishga xizmat qiladi.

Kirish so‘zlar: Akademik halollik, plagiat, iqtibos keltirish, intellectual mulk, mualliflik huquqi, ilmiy etika, antiplagiat.

Abstract.

This article provides a thorough analysis of the concept of academic honesty, its importance and place in the education system. It also analyzes the essence of plagiarism, its main types and causes. The article shows the negative consequences of plagiarism and reveals its impact on the learning process of students. In addition, it describes ways to ensure academic honesty, in particular, the development of independent thinking, the correct use of sources and compliance with the rules of citation. This article serves to form honesty, responsibility and scientific culture in students.

Keywords: Academic honesty, plagiarism, citation, intellectual property, copyright, scientific ethics, anti-plagiarism.

Аннотация.

В данной статье представлен всесторонний анализ концепции академической честности, ее важности и места в системе образования. Также анализируется сущность плагиата, его основные виды и причины. В статье показаны негативные последствия плагиата и раскрыто его влияние на учебный процесс студентов. Кроме того, описаны способы обеспечения академической честности, в частности, развитие самостоятельного мышления, правильное использование источников и соблюдение правил цитирования. Данная статья служит формированию честности, ответственности и научной культуры у студентов.

Ключевые слова: Академическая честность, плагиат, цитирование, интеллектуальная собственность, авторское право, научная этика, антиплагиат.

Kirish.

Bugungi globallashuv va axborot texnologiyalari jadal rivojlanayotgan davrda ta’lim tizimi oldida turgan eng muhim vazifalardan biri – raqobatbardosh, mustaqil fikrlaydigan va yuqori malakali kadrlarni tayyorlashdir. Bu jarayonda talabalarning nafaqat bilim darajasi, balki ularning akademik ko‘nikmalari, xususan, akademik halollikka rioya qilishi ham muhim ahamiyat kasb etadi. Akademik halollik – bu ta’lim va ilmiy faoliyat jarayonida adolat, shaffoflik, mas’uliyat va to‘g‘rilik tamoyillariga amal qilishni anglatadi. So‘nggi yillarda internet va raqamli texnologiyalarning keng tarqalishi natijasida ma’lumotlarga erishish osonlashdi. Bu esa bir tomondan bilim olish imkoniyatlarini kengaytirgan bo‘lsa, ikkinchi tomondan plagiat muammosining ortishiga sabab bo‘lmoqda. Ayrim talabalar tayyor materiallardan foydalanib, ularni o‘z nomidan taqdim etishga harakat qilmoqda. Natijada esa ta’lim sifati pasayib, haqiqiy bilim olish jarayoni izdan chiqmoqda. Shu bois akademik halollikni ta’minlash va plagiatning oldini olish bugungi kunda dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Ushbu maqolada akademik halollikning mohiyati, plagiat tushunchasi, uning asosiy sabablari va salbiy oqibatlari atroflicha tahlil qilinadi. Shuningdek, akademik madaniyatni shakllantirish hamda halollikni ta’minlashning samarali usullari yoritib beriladi.

Asosiy qism.

Akademik halollik va tushuncha

Akademik halollik (Academic Integrity) – bu ta’lim jarayonida to‘g‘rilik, adolat va mustaqil fikrlash tamoyillariga amal qilishdir. Har bir talaba, ilmiy ish ustida faoliyat yuritadigan tadqiqotchi - o‘z bilimini, mas’uliyat va halol yo‘l bilan namoyon qilishi lozim. Bundan tashqari o‘z ilmiy ishida boshqa izlanuvchilarning ishidan iqtiboslar keltirgan bo‘lsa, albatta bu keltirgan itqibos mualliflarini ilmiy ishning oxirida ya’ni, foydalanilgan adabiyotlar qismida keltirishi lozim. Bu nafaqat ta’lim sifatini oshiradi, balki shaxsning ishonch, hurmat va mas’uliyatini ham shakllantiradi.

Akademik halollikning asosiy tamoyillari:

- ✓ **Ro‘stgoylik** (honestly) – bu akademik jarayonda tadqiqodchi o‘z fikr va xulosasini namayon etishidir. Ro‘stgoylik nafaqat yo‘lg‘on gapirmaslik balki, haqiqatni bilishga intilishdir. Ilm – fan haqiqat ustiga qurilgan poydevordir, agarda poydevor ma’lumotlari yo‘lgo‘n, fake bo‘lsa, butun bino qulashiga to‘g‘ri keladi.
- ✓ **Ishonch**(trust) – akademik hamjamiyatlar a’zolari ya’ni o‘qituvchilar, talabalar, hamkasblar bir – birlarining adolatli va ro‘stgoy harakat qilishlaridir. Ishonch - bu akademik erkinlikning poydevoridir.
- ✓ **Adolat**(fairness) – barcha ishtirokchilarga teng shart – sharoitlar yaratish, xolis baholash va munosabatda bo‘lishdir. Hech kim imtiyozli holatda bo ‘lmasligi va hech kim nohaq ravishda kamsitilmasligi kerak.
- ✓ **Hurmat**(respect) – boshqalarning fikr, vaqti, mehnati va intellectual mulkiga hurmat bilan qarashdir. Hurmat yo‘q joyda plagiat avj oladi, chunki plagiat – bu boshqalarning mehnatini mensimaslikdir.

✓ **Mas'uliyat** (responsibility) – o'z harakatlari, xatolari uchun javobgarlikni o'z zimmasiga olishdir. Boshqalarning ayblanmaslik va oqibatlarni tan olishdir.

Plagiat esa boshqa muallifning fikri, matni yoki g'oyasini manbasini ko'rsatmasdan o'z nomidan taqdim etishdir. Plagiatning bir necha turlari mavjud: to'liq ko'chirish, qisman o'zgartirib yozish (parafraz), internetdan tayyor ishlarni olish va boshqalar. Bugungi kunda internetning keng tarqalishi plagiat muammosini yanada kuchaytirmoqda. Plagiatning asosiy sabablari orasida vaqt yetishmasligi, mavzuni yaxshi tushunmaslik, dangasalik va mas'uliyatsizlikni ko'rsatish mumkin. Ayrim talabalar tez natijaga erishish uchun oson yo'lni tanlaydilar, ammo bu ularning bilim olishiga salbiy ta'sir qiladi.

Plagiatning oqibatlari jiddiydir. Talaba bilimdan chetda qoladi, bahosi pasayadi va hatto intizomiy jazoga ham tortilishi mumkin. Bundan tashqari, bu holat kelajakda kasbiy faoliyatiga ham salbiy ta'sir ko'rsatadi. Bundan tashqari O 'zbekiston respublikasi konstitutsiyasida " Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to 'g 'risida" gi qonun(19- modda) ga asosan Ilmiy ishda foydalanilgan adabiyotlar muallifi keltirilmasa yoki asardan foydalanish mualliflik huquqini buzilishi deb hisoblanadi, va bazaviy hisoblash miqdorining bir necha baravari miqdorda jarimalar belgilanadi.

Akademik halollikni ta'minlash uchun har bir talaba mustaqil ishlashga odatlanishi, manbalardan to'g'ri foydalanishni o'rganishi zarur. Iqtibos keltirish qoidalariga amal qilish, vaqtni to'g'ri rejalashtirish va o'z bilimiga ishonish muhimdir.

Xulosa.

Xulosa qib aytganda, akademik halollik har qanday ta'lim tizimining poydevori hisoblanadi. U nafaqat talabaning bilim darajasini, balki uning shaxsiy fazilatlarini, mas'uliyatini va halolligini ham namoyon etadi. Plagiat esa bu jarayonga jiddiy zarar yetkazuvchi omil bo'lib, talabaning mustaqil fikrlash qobiliyatini susaytiradi va uning ilmiy salohiyatini cheklaydi. Akademik halollikka amal qilish orqali talaba o'z ustida ishlashni, bilimlarni chuqur o'zlashtirishni va mustaqil xulosa chiqarishni o'rganadi. Bu esa kelajakda uning malakali mutaxassis bo'lib yetishishida muhim rol o'ynaydi. Shu bilan birga, ta'lim muassasalari ham akademik madaniyatni rivojlantirish, talabalarga to'g'ri yo'l-yo'riq ko'rsatish va zamonaviy nazorat tizimlarini joriy etish orqali plagiatning oldini olishlari zarur. Umuman olganda, akademik halollikni ta'minlash – bu faqatgina talabalar emas, balki butun ta'lim tizimining umumiy vazifasidir. Har bir shaxs ushbu tamoyillarga amal qilgan holda faoliyat yuritsa, jamiyatda bilimli, halol va raqobatbardosh kadrlar soni ortadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. To'xtayev B. Menejment asoslari Toshkent: Iqtisodiyot nashriyoti,2016
2. Ishmuhamedov R., Yuldashev M. "Ta'lim va tarbiyada innovatsion pedagogik texnologiyalar". O'quv qo'llanma. T.:, 2013.
3. N.Sayidahmedov. Yangi pedagogik texnologiyalar. – T.: Moliya, 2003.
4. Will personalized e-learning increase deep learning in higher education? S.Manzanares, M.C.Garcia Osorio, C.I.Diez Pastor, J.F.Martin Anton. Information Discovery and Delivery. 47 (1) 53-63 pages.

5. Mirxodjayeva, D. B. (2025). Akademik ko‘nikmalar va kasbiy kompetentlik fanining kasbiy faoliyatdagi ahamiyati. Innovations in Science and Technologies, 2(3), 1075–1081. Innoist